



THE MAIN FEATURES OF THE PHILOSOPHY OF THE EASTERN RENAISSANCE

Lalikhon Mukhamedjanova

National University of Uzbekistan named after

Mirzo Ulugbek. Professor of the Department of Philosophy

Faculty of Social Sciences

lalixonm@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Eastern Renaissance, philosophy, al-Farabi, Avicenna, al-Biruni, rationalism, science and religion.

Received: 04.09.26

Accepted: 05.09.26

Published: 06.09.26

Abstract: This article explores the main features of the philosophy of the Eastern Renaissance. Based on the ideas of prominent scholars such as al-Farabi, Avicenna (Ibn Sina), and al-Biruni, the philosophical legacy of the era and its influence on modern science are analyzed. The study employs historical-philosophical and comparative methods. The findings reveal that Eastern Renaissance philosophy is distinguished by the harmony of science and religion, humanism, rationalism, and universality.

SHARQ UYG'ONISH DAVRI FALSAFASINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Lalixon Muxamedjanova

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti professori

lalixonm@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Sharq Uyg'onishi, falsafa, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, ratsionalizm, ilm va din uyg'unligi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq Uyg'onish davri falsafasining asosiy xususiyatlari ilmiy tahlil qilinadi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi allomalar qarashlari asosida mazkur davrning falsafiy merosi va uning bugungi ilm-fan rivojiga ta'siri ochib beriladi. Tadqiqotda tarixiy-falsafiy manbalar tahlili va komparativ metoddan foydalanilgan. Natijada Sharq falsafasi ilm va din uyg'unligi,

insonparvarlik, ratsionalizm va universallik kabi jihatlari bilan ajralib turishi asoslab beriladi.

ОСНОВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ФИЛОСОФИИ ВОСТОЧНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ

Лалихон Мухамеджанова

Национальный университет Узбекистана имени

Мирзо Улугбека, Профессор кафедры философии факультета социальных наук

lalixonm@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Восточное	Аннотация:
Возрождение, философия, аль-Фараби, Ибн Сина, аль-Бируни, рационализм, наука и религия.	основные особенности философии Восточного Возрождения. На основе идей таких мыслителей, как аль-Фараби, Ибн Сина и аль-Бируни, анализируется философское наследие эпохи и его влияние на развитие науки. В исследовании применены историко-философский и компаративный методы. Показано, что философия Восточного Возрождения характеризуется гармонией науки и религии, гуманизмом, рационализмом и универсализмом.	

Kirish. Sharq Uygʻonish davri (IX–XII asrlar) jahon falsafasi va madaniyati tarixida alohida oʻrin tutadigan davrdir. Mazkur davrda musulmon Sharqi ilmiy va falsafiy tafakkur markaziga aylangan boʻlib, ilm-fan, falsafa, tibbiyot, adabiyot, sanʼat, matematika, astronomiya va boshqa tabiiy fanlar yuksak darajada rivojlandi. Shu jarayon natijasida insoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshildi va butun dunyo ilmiy-madaniy hayotiga yangi bosqich olib kirildi.

Sharq uygʻonish davri falsafasi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Sharq mamlakatlarida, xususan, Arab dunyosi, Hindiston va Xitoyda roʻy bergan maʼnaviy va ijtimoiy oʻzgarishlarning falsafiy ifodasi sifatida shakllandi. Bu davrda mamlakatlar mamlakatlar mustamlakachilik bosimi ostida boʻlganligi sababli, ziyorlilar oʻz madaniy merosini saqlab qolish va zamonaviy Gʻarb gʻoyalarini oʻzlashtirish orqali milliy ozodlikka erishish yoʻllarini izladilar. Ushbu maqola Sharq uygʻonish davri falsafasining asosiy xususiyatlarini oʻrganishga bagʻishlangan boʻlib, uning maqsadi mazkur davr falsafasini tizimli tahlil qilish va uning zamonaviy taʼsirini koʻrsatishdir. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv sharoitida Sharq falsafasining ushbu xususiyatlari madaniy dialog va milliy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega.

Bu davrning eng muhim xususiyati shundaki, ilmiy tafakkur va diniy qarashlar bir-birini inkor etmagan, balki oʻzaro uygʻunlikda rivojlangan. Islom madaniyati doirasida antik meros –

Aflotun, Arastu, Galen kabi yunon mutafakkirlarining asarlari arab tiliga tarjima qilinib, keyinchalik ular asosida yangi ilmiy nazariyalar va falsafiy tizimlar ishlab chiqildi. Natijada, Sharq Uygʻonish davri nafaqat ilm-fan taraqqiyotiga, balki falsafaning yangi bosqichga koʻtarilishiga ham xizmat qildi.

Al-Farobiy, Ibn Sino va Beruniy kabi mutafakkirlarning asarlari bu davr falsafasining yuksak namunalari. Al-Farobiy jamiyat va davlatning mukammal tuzilishini falsafiy asoslarda yoritib, insoniy kamolot gʻoyasini ilgari surgan. Ibn Sino ilmiy tafakkurni falsafa, tibbiyot va mantiq bilan uygʻunlashtirgan holda universallikka erishgan. Beruniy esa tabiatshunoslik, tarix va falsafani tajribaviy usullarga asoslangan holda rivojlantirgan. Ularning qarashlari nafaqat musulmon Sharqining ilmiy-maʼnaviy hayotiga, balki keyinchalik Yevropa Uygʻonish davri tafakkuriga ham kuchli taʼsir koʻrsatgan.

Shunday qilib, Sharq Uygʻonish davri falsafasi insoniyat tafakkurida yangi ilmiy va maʼnaviy qadriyatlarni shakllantirib, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sharq Uygʻonishi davri mutafakkirlari asarlari keyinchalik koʻplab tadqiqotchilar tomonidan oʻrganilgan. Al-Farobiyning "Fozil shahar ahli" asarida jamiyat va davlat falsafasi yoritilgan.[1] Ibn Sino "Kitob ash-shifo" [2] va "Al-Qonun fi't-tibb" orqali nafaqat falsafa, balki tibbiyot sohasida ham bebaho meros qoldirgan. [3] Beruniy esa "Al-osor al-boqiya" asarida tarixiy-falsafiy qarashlarni rivojlantirgan.[4]

Zamonaviy tadqiqotlarda ham ushbu allomalarning gʻoyalari insonparvarlik, ilm va din uygʻunligi, ratsional tafakkur rivojida asosiy manba sifatida qayta baholangan.[5]

Sharq uygʻonish davri falsafasi haqidagi adabiyotlar koʻplab tadqiqotlarda oʻrganilgan. Arab Nahda (uygʻonish) boʻyicha Abdulrazzak Patel (2016) oʻzining "The Arab Nahdah: The making of the intellectual and humanist movement" asarida Nahda falsafasining asosiy xususiyatlarini taʼkidlab, uning Gʻarb taʼsirida shakllanganligini va milliy oʻzlikni tiklashga yoʻnaltirilganligini koʻrsatadi. Unga koʻra, Nahda "madaniy va ijtimoiy islohotlar orqali Arab jamiyatini zamonaviylashtirishga" xizmat qilgan.[6]

Hindiston uygʻonish davri haqida Sumit Sarkar (1997) "Writing Social History" kitobida Bengal uygʻonishini tahlil qilib, uning falsafiy asoslarini Raja Ram Mohan Roy va Swami Vivekananda gʻoyalari bilan bogʻlaydi. Sarkar taʼkidlaganidek, Hindiston uygʻonishida "Vedanta falsafasini Gʻarb ratsionalizmi bilan birlashtirish" muhim rol oʻynagan.[7]

Xitoyda May Toʻrtinchi Harakati falsafasi boʻyicha Vera Schwarcz (1986) "The Chinese Enlightenment: Intellectuals and the Legacy of the May Fourth Movement of 1919" asarida harakatning asosiy xususiyatlarini ochib beradi.[8] Schwarczning fikricha, May Toʻrtinchi

Harakati "demokratiya va fan" shiorlari ostida Konfutsiy an'alarini tanqid qilgan va zamonaviy milliyetni shakllantirgan.[9] (Schwarcz, 1986, p. 78).

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Sharq uyg'onish davri falsafasi umumiy xususiyatlarga ega bo'lsa-da, har bir mintaqada o'ziga xos ko'rinishlarga ega. Biroq, mavjud tadqiqotlarda falsafiy sintezning chuqur tahlili yetarli emas, shuning uchun ushbu maqola bu bo'shliqni to'ldirishga harakat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tarixiy-falsafiy yondashuv, komparativ tahlil va matnshunoslik metodlari qo'llanildi. Manbalarni tahlil qilish orqali Sharq Uyg'onishi falsafasining asosiy xususiyatlari aniqlanib, ularning bugungi davrda ham dolzarbligi ochib berildi.

Mazkur tadqiqotda Sharq Uyg'onish davri falsafasini o'rganishda bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, tarixiy-falsafiy yondashuv qo'llanilib, IX–XII asrlarda yashab ijod qilgan mutafakkirlarning asarlari o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlari bilan bog'liq holda tahlil qilindi. Bu usul Sharq Uyg'onish davrining falsafiy merosi faqat nazariy qarashlar emas, balki amaliy hayot, jamiyat va ilm-fan taraqqiyoti bilan bevosita uzviy aloqada bo'lganligini ko'rsatishga imkon berdi.

Shuningdek, komparativ (qiyosiy) tahlil metodi orqali Sharq mutafakkirlarining qarashlari antik yunon faylasuflari – Aflotun, Arastu va boshqa olimlarning g'oyalari bilan qiyoslandi, hamda ularning Yevropa Uyg'onish davridagi falsafiy oqimlarga ta'siri baholandi. Bu metod Sharq va G'arb tafakkuri o'rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlashga yordam berdi.

Tadqiqot jarayonida, shuningdek, matnshunoslik metodlari qo'llanilib, al-Farobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi allomalar asarlarining asl manbalari hamda ularning zamonaviy tarjima va sharhlari ilmiy tahlil qilindi. Bu yondashuv matnlardagi terminologik aniqlikni saqlash, muallif g'oyasini to'g'ri talqin etish hamda ularning falsafiy mohiyatini izohlash imkonini berdi.

Bundan tashqari, analitik va sistemali yondashuv ham metodologik asos sifatida qo'llanildi. Bu orqali Sharq Uyg'onishi davri falsafasining asosiy xususiyatlari – ilm va din uyg'unligi, ratsionalizm, universallik va insonparvarlik tamoyillari yagona tizim doirasida ko'rib chiqildi.

Shunday qilib, qo'llangan metodologik yondashuvlar Sharq Uyg'onish davri falsafasini keng qamrovli va obyektiv tarzda o'rganish, uning bugungi davrdagi ilmiy hamda ma'naviy dolzarbligini ochib berishga imkon yaratdi.

Tahlil va natijalar. Sharq Uyg'onish davri falsafasi ilmiy va madaniy taraqqiyotning yuksak cho'qqisidir. Ushbu davr mutafakkirlari o'z qarashlarida ilm va dinni uyg'unlashtirish,

insoniy qadriyatlarni ulug'lash, aql va tajribani asosiy bilish vositasi sifatida qarash orqali yangicha tafakkur maktabini yaratdilar.

Al-Farobiy insonning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy adolat va komillik g'oyalarini falsafiy nuqtai nazardan asoslab berdi. Uning ta'kidlashicha: "Inson o'z tabiati bilan fozil jamiyatda yashashga intiladi".[10] Bu fikr jamiyatni faqat moddiy ne'matlar emas, balki ma'naviy qadriyatlar asosida barpo etish lozimligini ko'rsatadi. Farobiyning "Fozil shahar ahli" konsepsiyasi keyinchalik ijtimoiy-falsafiy ta'limotlarning rivojlanishiga zamin yaratdi.

Ibn Sino falsafiy tafakkurda aql va bilish jarayonining markaziy o'rnini belgilab berdi. U shunday yozadi: "Aqlning vazifasi — mavjudotni bilish va uni idrok etishdir".[11] U ilmiy bilishda nafaqat nazariy tafakkur, balki tajribani ham muhim deb hisoblagan. Ibn Sinoning tabiiy fanlar va tibbiyotdagi tadqiqotlari uning falsafiy qarashlari bilan uyğun holda rivojlangan бўлиб, бу уни универсал олим сифатида намоён этди.

Abu Rayhon Beruniy esa ilmiy tadqiqotlarda tajribaga asoslangan kuzatuv usullarini qo'llash zarurligini alohida urg'u bilan qayd etdi. U shunday yozadi: "Ilmning asosi — kuzatish va tajribaga tayanishdir".[12] Bu yondashuv o'z davri uchun ilmiy inkilobiy fikr бўлиб, кейинги асрлардаги эмпирик илм-фан тараққиётига кучли таъсир кўрсатди.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Sharq Uyg'onish davri falsafasida quyidagi asosiy xususiyatlar ajralib turadi:

1. Ilm va din uyg'unligi. Falsafa diniy aqidalarni inkor etmagan, balki ularni ilmiy asoslashga intilgan.
2. Ratsionalizm va tajribaviylik. Bilishda aql, mantiq va tajribaga tayanish muhim mezon sifatida qaralgan.
3. Insonparvarlik va ma'rifatparvarlik. Inson kamoloti, bilim orqali saodatga erishiш foyasi markaziy ўринда турган.
4. Universallik. Mutafakkirlar ko'p fanlar bilan shug'ullangan va falsafani tabiiy-ilmiy bilimlar bilan uyg'unlashtirgan.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Sharq Uyg'onish davri falsafasi nafaqat o'z davri taraqqiyotiga, balki keyinchalik Yevropa Uyg'onish davri tafakkurining shakllanishiga ham nazariy asos bo'lib xizmat qilgan.

Xulosa. Sharq Uyg'onish davri falsafasi jahon tafakkuri tarixida o'ziga xos, mustaqil bosqichni tashkil etadi. Bu davr nafaqat Sharq xalqlari, balki butun insoniyatning ilmiy-ma'naviy merosiga ulkan hissa qo'shdi. Al-Farobiy, Ibn Sino va Beruniy kabi buyuk allomalar o'z qarashlarida insonning komillikka erishishi, jamiyatning adolatli va fozil tarzda tashkil topishi, ilm va dinning uyg'un rivoji masalalarini chuqur falsafiy asoslab berdilar.

Forobiy inson kamolotini jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda ko'rib, "fozil shahar" konsepsiyasida ilm, adolat va ma'naviyatning birligi zarurligini ta'kidladi. Ibn Sino aqlni bilishning eng muhim vositasi sifatida ulug'lab, nazariy tafakkur va tajribani uyg'unlashtirish orqali universal ilmiy metodni shakllantirdi. Beruniy esa ilmning asosi sifatida kuzatish va tajribani ko'rsatib, tabiiy fanlarning empirik rivojiga yo'l ochdi.

Mazkur falsafiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, Sharq Uyg'onish davrida ilm-fan va falsafa diniy qadriyatlar bilan birgalikda yuksaldi, insonparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari markaziy o'ringa chiqdi. Bu esa keyinchalik Yevropa Uyg'onish davriga kuchli ta'sir ko'rsatib, yangi davr ilmiy tafakkurining shakllanishida nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Shunday qilib, Sharq Uyg'onish davri falsafasi bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Undagi ilmiy tafakkur, ratsionalizm, insonparvarlik va din-ilm uyg'unligi g'oyalari XXI asr ilm-fan va madaniy taraqqiyotida ham muhim manba bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Al-Farabi. (1993). Kitab al-Madina al-Fadila [The virtuous city]. Beirut: Dar al-Mashriq.
2. Avicenna (Ibn Sina). (2009). The Book of Healing (Kitab al-Shifa). Provo, UT: Brigham Young University Press.
3. Avicenna (Ibn Sina). (2009). The Book of Healing (Kitab al-Shifa). Provo, UT: Brigham Young University Press.
4. Al-Biruni, A. (1983). Al-athar al-baqiya 'an al-qurun al-khaliya [Chronology of ancient nations]. Beirut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyya.
5. Nasr, S. H. (2007). Science and civilization in Islam. Cambridge, MA: Harvard University Press.
6. Patel, A. (2016). The Arab Nahdah: The making of the intellectual and humanist movement. Edinburgh University Press.
7. Sarkar, S. (1997). Writing Social History. Oxford University Press.
8. Schwarcz, V. (1986). The Chinese Enlightenment: Intellectuals and the Legacy of the May Fourth Movement of 1919. University of California Press.
9. Schwarcz, V. (1986). The Chinese Enlightenment: Intellectuals and the Legacy of the May Fourth Movement of 1919. University of California Press.
10. Al-Farabi. (1993). Kitab al-Madina al-Fadila [The virtuous city]. Beirut: Dar al-Mashriq.
11. Avicenna (Ibn Sina). (1999). The Canon of Medicine (Al-Qanun fi al-tibb). Chicago: Great Books of the Islamic World.

12. Al-Biruni, A. (1983). *Al-athar al-baqiya 'an al-qurun al-khaliya* Beirut: Dar al-Kutub al-‘Ilmiyya.